


# Bolalar Muqaddas Kitobi Tasvirlab beradi

## Yoshua ma'suliyatni bo'yniga oladi



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan: Janie Forest

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan: Ruth Klassen

60 ta hikoyadan 13-si

[www.M1914.org](http://www.M1914.org)

*Bible for Children, PO Box 3, Winnipeg, MB R3C 2G1 Canada*

Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin. Lekin u sotilmaydi.

O'zbekcha

Uzbek

Muso vafot etgandi. Endi Xudo Isroilni etakchisi qilib Yoshuani tanladi. Agar Isroilliklar Xudoga itoat etishsa, Xudo albatta YOshua va ularga g'alaba berishini va'da berdi.



1




Isroilliklar doim Yoshuaga ergashib, Xudoga itoat etishga va'da berishdi.

2

Yoshua Ierixon shahrini  
o'rganib kelish uchun ikkita

ayg'oqchini  
jo'natdi.  
Isroilliklarni  
birinchi jangi  
o'sha erda  
bo'lishi  
kerak edi.



3



Kimdir Ierixon shohiga shaharda  
ayg'oqchilar yurganligini aytdi.  
Shunda shoh ularni topib kelishni buyurdi.  
Ayg'oqchilar Rohilani uyida yashiringan edi.

4



Shoh lashkarlari ularni aynan o'sha erdan  
izlashni boshlashdi. Ular kelganda, Rohila  
ayg'oqchilarni zig'ir o'tlari ichiga yashirdi.

5

Shoh lashkari  
ketganda, Rohila  
ayg'oqchilarni  
shahar  
devoridan  
tushurib,  
qochishga  
yordam berdi.  
Lekin nima  
uchun Rohila  
ularga yordam  
berdi?




6

Chunki Xudo ular  
bilan ekanligini  
Rohila bilardi.  
Ayg'oqchilar uni  
va oilasini asrab  
qolishga va'da  
berishdi.




7

Ierixonga kirishdan oldin Isroilliklar Iordan  
daryosini kesib o'tishi kerak edi.



8

Ammo u erda ko'prik yoq edi. Odamlar qanday qilib daryodan o'tishadi?




9

Xudo Yoshuaga oliyruhoniylar lashkar va O'nta Amr yozilib, ichiga solingan Ahd Sandig'ini etaklab borishi kerakligini aytdi. Oliyruhoniylar daryo bo'yiga kelganda, Xudo mo'jiza qildi. U daryoni o'rtasidan er ochdi.




10

Ularning barchasi daryodan o'tib bo'lgach, qirg'oqqa va Kan'on qirg'og'i bo'yiga 12tadan tosh qo'yishdi. Bu Xudoning ularga ko'rsatgan marhamatini unutmaslik uchun qilindi.




11



Ierixon devorlari juda qalin va mustahkam edi. Yoshua jangga hozirlanib turganda, Xudo osmondan O'z qo'shinini Qo'mondonini erga yubordi. U Yoshuaga bu jang unga g'alaba olib kelishini aytdi.


12



Xudo Yoshuaga Ierixon devori atrofida olti kun davomida har kuni bir martadan, ettinchi kuni esa etti marta aylanishi kerakligini aytdi. Keyin karnay chalib, baqirishlari kerakligini ham aytdi. Shundan so'ng devor qulashi kerak edi.

13

Yoshua va uning qo'shini Xudo amr etgandek qilishdi. Ierixonliklar ularning ustidan kulishdi. Ammo ettinchi kuni karnayni chalishgandan keyin Ierixon devori quladi!




14



Faqatgina Rohilaning uyi omon qoldi. U derazasidan qizil arqonni chiqarib, ilib qo'ygan edi.

15




Yoshuaning odamlari uni va oilasini qutqarib olishdi. So'ng Xudo va'da qilgandek Ierixon barbod qilindi.

16



Shahardan qolgan barcha oltin, kumush va boshqa boyliklarni Yoshua tantanali ravishda Xudoga nazr qildi.

17



So'ng: "Shaharni qaytadan tiklanmasin, bu Xudoga qarshi," -dedi. Tez orada atrofda barcha Yoshua haqida eshitishdi va Xudo O'z xalqi bilan birga ekanligini bilishdi.

18

Yoshua ma'suliyatni bo'yniga oladi  
Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Yoshua 1-6

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."  
Zabur 119:130

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim.

Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Endi Hudo bizni gunohlarimizni Iso tufayli kechira oladi.

Agar siz gunohlaringizdan ozod bo'lishni istasangiz, Hudoga shunday deb ayting: "Mehribon Hudo, Men Iso mening gunohlarim uchun o'lganiga ishonaman, iltimos mening hayotimga kel, va mening gunohlarimni kechir, men yangi hayot bilan yashashim uchun va Sen bilan abadiy bo'lishim uchun menga yordam bergin. Men Sening frazanding bo'lishimga yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!